

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINISHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ubbiyeva Sapargul

Xo'jayli tumani 3-sonli maktabning

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda yosh avlodning ma'naviy-intelektual salohiyatini rivojlantirishda kitob mutolaasining ahamiyati, kitobxonlikni shakllantirishda oila va maktabning o'zaro hamkorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, kitobxonlik madaniyati, pedagogik asoslar, o'qish ko'nikmalari.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy-intelektual salohiyatini yuksaltirish, ularning ong va tafakkurini rivojlantirish hamda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarida kitobga bo'lgan qiziqishni erta yoshdan rivojlantirish ularning kelgusidagi bilim olish jarayoniga mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi qarori asosida ta'lim muassasalarida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bunda dastlab, yurtimiz yoshlarini kitobxonlikka jalb qilish ularning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida, kitobxonlik bo'yicha tanlovlar o'tkazishni va unga jalb qilish

ishlarini amalga oshirdi. Prezidentimiz aytganidek, “Bugun bitta kitob o’qigan bola, ertaga o’nta televizor ko’rib o’tirgan bolani boshqaradi” – deydi. Bu so’zlarning zamirida kitobning qay darajada bola ongini, tafakkurini rivojlantirishi va yuksaklarga eltuvchi kuch ekanligini anglashimiz mumkin.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz merosiga, urf odatlarimizga nazar soladigan bo’lsak, ular ichida eng qadimiy va noyob sanaladigan buyuk me’ros bu – kitob bo’lib, ayniqsa kitob meros va urf odatlarimizni o’zida mujassamlashtiradigan, insonlarni ezgulikka chorlaydigan noyob bilim manbai ekanligi shak-shubhasiz tilga olinadi. Yoshlarga bo’lgan e’tibor va ularning kelajagini belgilash borasidagi qator vazifalar mustaqilligimizning dastlabki davrlaridan davlatimiz siyosati darajasiga ko’tarilganligi va yurtning ravnaqi, manfaati g’amxo’rlikning ifodasi, zamiriga yetuk va komil inson bo’lib kamol topish masalalarini olg’a suradi. Kitobga qiziqish, kitob haqidagi tasavvurlar insonga o’yin faoliyatidan boshlab singdirib boriladi. Dastlab ularga ota-onalar tomonidan qisqa mazmunda ertaklar o’qib berish orqali, badiiy obrazlar go’zalligini his etib tarbiyalanib boradi. Ana shu dastlabki uchrashuv bolaning o’quvchilik davrdagi ma’naviy hayotining barcha sohalari, yani mehnat, o’yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog’liq bo’lib bola hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Demak, bolani kitobga qiziqtirish unda kitobxonlikni shakllantirish dastlab oiladan boshlanar ekan. Ota-ona bolaga qiziqarli uni hayotot olamiga yetaklaydigan ertak va rivoyatlarni mu’tolaa qilib berar ekan, bolada mardlik, jasurlik, iro dalilik, birdamlilik, hamjihatlik, mehr va muxabbat, ezgulik xislatlari mukammal shakllanib boradi. Bu jarayon bolaga ota-ona tomonidan maktabga ilk qadam qo’ygungacha davom ettirilib, boshlang’ich sinfga kelgandan keyin esa o’zi kitoblarni mutolaa qilishga harakat qila boshlaydi. Oilada ota-ona, maktabda o’qituvchi o’quvchining o’qish ko’nikmalarini rivojlantirib borishi, bolada kitob o’qish ishtiyoqini uyg’otishi kerak. Bolada kitob o’qishga ishtiyoqini shakllantirishda ota-ona kitob tanlashda quydagilarni inobatga olishi zarur:

- Kitobning bola yoshiga mos kelishi;
- Kitobni bolaning xarakteriga qarab tanlash;

- Kitobning bolaga o'zi qiziqadigan kasbni tanlashda turtki bo'lishi;
- Kitobning mazmuniga ahamiyat berishi;
- Kitobning qanday tilda yozilganligini e'tiborga olish.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-ona kitob tanlashda e'tiborga olishi va ahamiyat berishi talab qilinadi. Bola yoshi ulg'aygan sari uning dunyoqarashi, o'qigan kitoblari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan innovatsiyalari ta'sirida kengayib boradi. Kitob o'qishga qiziqtirishda ota-ona eng dastlabki fundament bo'lib, bolaga maktabgacha bo'lgan davrda, bolaning qiziqishlariga qarab kitobni o'qib berib unga mehr uyg'otsa, kitobning nima ekanligini, uning sir-sinoatlari haqida ma'lumot bersa, bolaning kitobga qiziqishi kengayib kitob o'qishga ishtiyoqi shakllanib boradi. Keyinchalik bu boshlang'ich sinf o'qish darslarida takomillashtirib boriladi. O'quvchi o'z olamidan kelib chiqib har xil janrda yozilgan kitoblarni o'qishga qiziqadi. O'quvchining qiziqishini muntazam ravishda nazorat olib unga kitob o'qishga imkon yaratib berish, uni qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchida kitob o'qish ishtiyoqi yanada kuchayib, kitobxon o'quvchiga aylanib borishi shubhasiz. Kitobxonlik bilan muntazam shug'ullanib borish o'quvchida boshqa predmetlarni ham o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon avvalo oilada boshlanib, maktab ta'limi orqali takomillashib boradi. Ota-ona va o'qituvchining hamkorlikda olib borilgan maqsadli faoliyati natijasida o'quvchilarda mustaqil mutolaa qilish ko'nikmalari shakllanadi, ularning dunyoqarashi kengayadi va bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ham bolalarda kitobga bo'lgan mehrni oshirish dolzarb pedagogik vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish to‘g‘risida”gi qarori.
- 2.Abdullayeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
- 3.Yo‘ldoshev J. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
- 4.Karimova G. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari. – Toshkent, 2021.